

## ”DUNYONING YETTI MO’JIZASI” TOJ MAHAL YODGORLIGI

**Sh. S. Kadabayeva**

*v.b.dosent, TAQU*

### ARTICLE INFO.

**Kalitso’zlar:** maqbara, gumbaz, minora, optik illyuziya, oq marmar, geometrik naqshlar, ravoq, marmar supa, ibodatxona, koshin.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada yoritilishi ko’zda tutilgan mavzu hozirgi kunda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib ”Dunyoning Yetti Mo’jizasi” dan biri hisoblangan Toj Mahal binosi qurilishi sir asrorlari, uning ramziy kalitini topish orqali Toj Mahalning mo’jizasi ortidagi haqiqatni ochish mohiyatiga yetish, binoning xar bitta toshini, uni betakror marmar devorlari va o’ziga xos gumbazi ichkarisiga nazar tashlash orqali misli ko’rilmagan go’zalligi sirlaridan voqif bo’lish haqida so’z yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

**Kirish:** ”Dunyoning Yetti Mo’jizasi” dan biri hisoblangan hamda bir necha asrlardan beri butun jahon ahlini lol qoldirib kelayotgan Lal Qal’adagi Toj Mahal yodgorligi Shoh Jahon davrida qurilgan bo’lib, bunga Movarounnahr va Xurosonning eng atoqli minglab usta-me’morlarining xizmatlari singgan. Toj Mahal 1632-1653 yillar orasida hozirgi Hindistonning Agra shahrida bino etilgan bo’lib, uning qurilishida 22000 usta hamda 1000 ta fil qatnashgan. Binoga 28 hil qimmatbaho va turli hil boshqa yarim qimmatbaho toshlar o’rnatilgan edi. Inglizlar Hindistonga bostirib kelgan davrda ushbu qimmatbaho toshlarni talon-taroj qiladilar.





### ***”Dunyoning Yetti Mo’jizasi” Toj Mahal yodgorligi***

Boburiylar sulolasining vakili bo’lmish Shoh Jahon 1592 yilning 5 yanvarida dunyoga keldi. Jahongir shohning uchinchi o’g’li, otasi tug’ilganda unga Xurram deb ism qo’ydi. 1627 yilda otasi Jahongir shohdan keyin 36 yoshida taxtga o’tirgandan keyin ismini Shoh Jahon deb o’zgartirdi. U juda qattiqqo’l va jur’atligi bilan ajralib turar edi. Bir necha harbiy yurishlar natijasida saltanatining hududini bir necha barobar kattalashtirishga erishdi. Shoh Jahon o’z davrining eng qudratli insonlari qatoridan joy oldi. U faqatgina harbiy urushlar bilangina chegaralanib qolmadi. Shoh Jahon ko’pgina ilmlarni yaxshi egallagan, ilm-fan va me’morchilikka o’z hissasini qo’shgan, san’at namoyondalarini qo’llab-quvvatlagan, go’zallikni qadrlagan.

Mumtoz Mahal 1593 yilda dunyoga keldi. U Jahongir shohning rafiqasi Nur Jahonning akasi hamda saltanat vaziri Abdul Xasan Asaf Xonning qizi bo’lib, tug’ilganida unga Arjumand Bonu Begim, deb ism qo’yilgan. Naql qilishlaricha, shahzoda Xurram Arjumand Bonuni ko’rib, unga mahliyo bo’lib qoladi. U bu qizni shunchalik sevib qoladiki, unga uylanishga qaror qiladi. Asl millati arman bo’lgan bu qiz Jahongir shohning atrofidagi vazirlardan birining qizi va rafiqasining jiyani edi, ya’ni kelib chiqishi ham oqbilaklardan edi. Shuning uchun bu juftlikning nikohiga hech kim to’sqinlik qilmadi. Aksincha, bunday ittifoq taxt vorisining pozitsiyasini mustahkamlar edi, biroq shunga qaramay, ular sevishib turmush qurdilar.

Aynan to’y kuni Jahongir shoh keliniga Mumtoz Mahal, ya’ni “saroy javohiri”, deb ism qo’ydi. Bu narsa qizning naqadar go’zal bo’lganligini yana bir marta isbotlaydi. Saroy shoirlari u haqda shunday der edilar: “Uning chehrasini ko’rib, oy ham uyalib qoladi. U o’z chiroyi bilan yulduzlarning shu’lasini ham so’ndirib yuboradi”.

Mumtoz Mahal Shoh Jahonning uchinchi rafiqasi edi. Tabiiyki, taxt vorisining o’ziga yarasha harami bor edi, biroq u yerdagi birorta ham ayol shahzodaning ko’nglidan joy olib, Arjumandni unutishiga erisholmadi. Ularning turmushlari davomida Mumtoz Mahal turmush o’rtog’i Shoh Jahonga 14 nafar (8 ta o’g’il va 4 ta qiz) farzand tug’ib berdi. 1628 yilda Jahongir Shoh taxtga o’tirdi, Mumtoz Mahal esa Hindiston malikasi bo’ldi.

Mumtoz Mahal aqlli, zukko va oqila ayol edi, shuning uchun ham u erining yaqin maslahatchisiga aylandi. U eriga shunchalik yaqin ediki, uni harbiy yurishlarida ham birga yonida bo’lar edi. Afsuski, Arjumand xonimning eriga nisbatan bo’lgan chuqur muhabbati unga juda qimmatga tushdi. 1631 yilda malika homiladorligiga qaramasdan, erining harbiy safariga birga chiqdi. Uzoq yo’l mashaqqatidan uringan malikaning tug’ruq jarayoni og’ir kechdi va u farzandini dunyoga keltirib, o’zi olamdan ko’z yumdi. Mumtoz Mahal xonim bu paytda sal kam qirqqa yaqinlashib qolgan edi. O’limi oldidan u eriga o’zining sharafiga maqbara qurishini vasiyat qilib qoldi. Xotinini jonidan ortiq yaxshi ko’rgan Shoh

Jahon uning o'limidan qattiq iztirobga tushdi. Sultonning buyrug'i bilan maqbara qurilishi Mumtoz Mahal xonimning vafotidan yarim yil o'tgach boshlandi. U 1632 yilda boshlandi. Tarixchilarning ta'kidlashlaricha, dunyodagi hech bir qurilma, hech bir inshoot bunday katta sarf-xarajatga tushmagan. Mumtoz Mahal xonimning vasiyatini bajarish uchun Shoh Jahon 32 million rupiy sarf qilgan, bugungi kunda bu bir necha milliard yevroni tashkil etadi.

Sulton Shoh Jahon maqbaraning qurilishi uchun Agra shahrini tanladi. Sultonni Jamna daryo bo'yidagi tabiat manzarasi maftun etdi. Suv yaqinida qurilish olib borish ishchilarga qiyinchilik tug'dirar edi, shunga qaramasdan maqbara qurilishi muvaffaqiyat olib keldi.

**Asosiy qism:** Tadqiqotchilar ushbu maqbara bilan bog'liq yangidan yangi sir sinoatlarni kashf qilmoqdalar. Toj mahalning ramziy kalitini topish orqali uning mo'jizasi ortidagi haqiqatni ochish mumkinmi? Ayni sanoatning mohiyatiga yetish uchun biz Toj Mahalning xar bitta toshini ajratib chiqamiz. Uni betakror marmar devorlari va o'ziga xos gumbazi ichkarisiga nazar tashlash orqali misli ko'rilmagan go'zalligi sirlaridan voqif bo'lishga xarakat qilamiz.

Toj Mahal yodgorligini xar yili millionlab sayyoh kelib ko'radi. Ularni ushbu inshootning misli ko'rilmagan go'zalligi va uning ortidagi fojyaviy taqdirar qiziqtiradi. Bu yodgorlikni 1631 yilda shahzoda Shohjahon 14 farzandini dunyoga keltirish chog'ida vafot etgan rafiqasi Arjumand Bonu Begim (Mumtoz Mahal begim) ning hotirasiga atab qurdirgan. Shundan beri Toj Mahal muhabbat timsoliga aylangan. Lekin bu devorlarning ortida boshqacha voqeylik yashiringan. Unga xokimiyatga intilish, xiyonat va mutaasiblik tuyg'ulari sabab bo'lgan. Mashhur inshootlar va buyuk insonlar bilan bog'liq tarix xamisha sir sinoatlarga to'ladi. Butun dunyoda Toj Mahalni muxabbat ramzi sifatida bilishadi, biroq uning tarixi ancha ayanchlidir. Toj Mahal haqiqatdan xam durdona yodgorlik.


Ulkan maqbara 9000 m<sup>2</sup> lik marmar supa ustida bunyod etilgan. Uning burchaklarida 4 ta 42 metr balandlikdagi minoralar qad rostlagan. Ushbu inshootning gumbazlari va ravoqlari misli ko'rilmagan darajada uyg'unligi bilan ajralib turadi. 4 metr qalinlikdagi devorlarning ortida esa Mumtoz mahalning 8 qirrali sag'anasi joylashgan. Toj Mahal ustunlari zilzila paytida qabrlar ustiga qulamaydigan qilib qurilgan. Xar tomonlama go'zal mazkur maftunkor yodgorlik me'morchilik va san'at nuqtai nazardan mukammal sanaladi.

Shu ma'noda Toj Mahal shunchaki inshoot emas, balki dunyo mo'jizasi sanaladi. Toj Mahal Hindistonning timsoliga aylanib ulgurgan. Uning beqiyos manzarasini ko'plab sur'atlar va filmlarda ko'rishimiz mumkin. Ma'lum muddat Toj Mahal barcha hindistonliklarning hayolini band etgan. Biroq u qay darajada hindcha uslubda qurilgan? Olimlarning fikricha Toj Mahalning me'moriy yechimi uning qurilishi Hindiston me'morchiligiga xos emasligini ko'rsatib turadi. Unga yaqqol dalillarni maqbaradan tashqarida Agraning gavjum ko'chalarida ko'rish mumkin. Ushbu ko'chalarda qurilgan binolarga qarab ularni kim qurgani haqida o'ylash juda muhim, qolaversa bu binolarning qurilishida qanday me'moriy uslublardan foydalanilgani haqida fikrlash zarur.

Toj Mahalning me'moriy tuzilishi boshqa binolardan butunlay farq qiladi. Shohjahon hukmronligi davrida Hindistonning aksariyat aholisi hinduviylar diniga e'tiqod qilar edi. Tabiiyki ularning binolarda diniy e'tiqodlari aks etgan. Hindcha ibodatxonalar va inshootlar o'ta yorqin va quyuk ranglarda bo'lib, bu yerdan bir necha yuz metr naridagi oq marmardan qurilgan maqbaraga umuman o'xshamaydi. Xindlar juda ko'plab ma'budlarga ibodat qiladilar. Hinduviylikda haqiqatdan xam ma'budlar, ilohlar va ular bilan bog'liq hayvonlar nihoyatda ko'p. Malika Mumtoz mahal xotirasiga atab qurilgan Toj Mahal muqaddas maqbara xisoblanadi. Biroq ushbu inshootda hindiy diniy alomatlar deyarli yo'q, nega shunday?

Chunki yodgorlikning bunyodkori butunlay boshqa dinga e'tiqod qilgan. Gumbazli bino tegrasidagi 4 ta cho'm minora asosan yaqin Sharq masjidlar atrofida uchraydi. Darvozalar va derazalar tepasini ravoq shaklida qurish esa qadimgi Iroq me'morchiligiga xos uslub sanaladi. Devorlardagi go'zal naqshlar shaklidagi bezaklar aslida Qur'on kitobidan olingan oyat va suralardan parchalardir. Maqbara

ichkarisidagi 8 ta devorning xar biri jannatning 8 ta darvozasini ifodalaydi. Darhaqiqat Toj Mahal to'liq islom diniga xos matnlar va ramzlar bilan bezatilgan.



***Toj Mahal binosi devorlaridagi Qur'on kitobidan olingan oyat va suralardan parchalar go'zal naqsh, bezaklar tarzida aks etilgan holati***

Mazkur maqbara nafaqat shahzoda Shohjahon muxabbatining timsoli sanaladi, balki uning shaxsiyati va e'tiqodining ifodasi xam xisoblanadi. Chunki Shohjahon Hindiston yerida xukmronlik qilgan islom dini vakili bo'lgan. Asli O'zbekistonlik bo'lgan uning ajdodlari bu mamlakat xududida buyuk Boburiylar saltanatini barpo etgan. Shu tariqa u o'sha paytdagi dunyo aholisining chorak qismini boshqargan. Xo'sh Shohjahon bunga qanday erishgan?

Toj Mahal tomi tepasiga hindiy diniga xos timsol o'rnatilgan. Bundan ko'rinadiki xukmdor hindlarning xam qadriyatlarini unutmagan. Chunki Shohjahon agar ushbu yodgorlikni to'liq o'z e'tiqodi va madaniyatidan kelib chiqib bunyod etsa, mahalliy aholining g'ashini keltirishini to'g'ri tushungan. Shohjahon so'zi jahon hukmdori degan ma'noni anglatadi, garchi u aslida unday maqomga ega bo'lmasada o'z nazoratidagi davlatda turli e'tiqodga mansub xalqlar erkin yashashi lozimligini yaxshi tushungan. Bunday turfa e'tiqodli odamlar yashaydigan jamiyatni boshqarish uchun podshoh donishmand bo'lishi lozim. Shunga qaramay u shaxsiy hayotida o'z e'tiqodida sobit qolishi talab etilgan.

Islom dinida Allohni jismoniy qiyofada gavdalantirish taqiqlangan. Shuning uchun unga faqat timsollar orqali e'tiqod qilish lozim sanaladi. Hinduviylikdagi ma'budlarni turli insonlar va jonzodlar ko'rinishida tasvirlashdan farqli o'laroq islom dinida bunga ruxsat berilmagan. Shuning uchun xam Shohjahon Toj Mahalda faqatgina islom ulamolari tushuna oladigan maxfiy ramziy belgilarni qoldirib ketgan.

Yodgorlikning poyida Allohning qudrati beqiyosligini ifodalovchi cheksiz davom etib ketaveradigan 8 qirrali yulduz shaklidagi geometrik naqshlar tushurilgan. Bino darvozalaridagi nafis arabcha xarflar haqiqiy san'at namunasidir. Albatta bu musulmonlar uchun Allohning go'zallikni sezuvchi ekanligini bildiradi. Maqbaraning ichki devorlari behishtning to'kin sochinligini eslatuvchi gulli naqshlar bilan bezatilgan. Demak Toj Mahal faqatgina boy berilgan muhabbat yodgorligi emas, balki podshoh Shohjahonning e'tiqodini namoyish qiluvchi me'moriy obida xam sanaladi. Bugungi kunda tadqiqotchilar ushbu maqbara devorlariga bitilgan turli sirli bitiklarning ma'nosini o'rganish bo'yicha izlanish olib boryapti. Xo'sh hukmdorning ushbu bino qurilishida xar bir toshga xam alohida ahamiyat bergani uning cheksiz qudratga intilishini ifodalaydimi?

Afsonaga ko'ra Toj Mahal abadiy muxabbat va ayolining bevaqt o'limidan qattiq iztirob chekkan Shohjahonning cheksiz qayg'usi ifodasi o'laroq bunyod etilgan. Biroq uning yagona to'g'ri fikr deb bo'lmaydi. Bino uchun maxsus toshlarning tanlanishini o'ziyoq Shohjahonning ulug'lik davosidan

darak beradi. U o'z kuch qudratini namoyish qilish imkoniyatini xech qachon qo'ldan boy bermaydi. Boburiy hukmdorlarning avvalgi maqbaralari asosan mahalliy qizg'ish toshlardan qurilgan. Ammo Shohjahon mavjud an'anani buzadi va Toj Mahalni qimmatbaho va noyob oq marmardan qurdiradi. Ho'sh nega u marhum ayolining maqbarasi uchun aynan oq marmarni tanlagan. Toj Mahalning oq marmardan qurilishining o'ziyoq bu inshootga o'zgacha mo'jiza bag'ishlaydi. Muhtasham maqbara bir necha ming dona vazni yarim tonnalik sof oq marmar toshlardan barpo etilgan. Bu maqbaraning eni 4 metrlik, ichki devorlari esa millionlab dona qizil g'ishtlar yordamida tiklangan. Natijada binoni qurish uchun marmarga nisbatan 20 barobar ko'proq ana shunday g'ishtlar ishlatilgan. Temir tirnoq qoplamalar marmarni o'z o'rnida juda mustaxkam ushlab turadi va shu bois Toj Mahalning oppoq sirti ko'chib tushmaydi. Toj Mahal tong saharda pushti, kunduzi sutday oq, tungi oy yorug'ida esa oltinrang bo'lib ko'rinadi.



### ***Toj Mahal binosini tong saharda pushti rangda ko'rinishi***

Ho'sh nega Shohjahon oq marmar uchun shuncha tashvishni o'z bo'yniga olgan? Bu savolning javobi sirli bitikda yashiringan. Bugungi kunda shuncha miqdordagi marmar toshlarni bu yerga tashib keltirish qanchalik mashaqqatli kechganini tasavvur qilish xam mushkul.

Hozirgi kunda hind me'morlari tomonidan Toj Mahalning asosiy darvozasini qayta tiklash ishlari olib borilgan. Qayta tiklash ishlari davomida qizil g'isht qoplamali devorlarni ko'rish mumkin. Maqbaradan 300 metr naridagi binoning sirti oq marmar yordamida bezatilgan xolos. Afsuski quyosh nurlari va shamol ta'sirida o'sha qoplama butunlay ko'chib tushgan. Tashqi bezaklarning ko'chib tushishi natijasida binoning qiyofasiga jiddiy ziyon yetgan. Qadimgi inshootning asl ko'rinishini qayta tiklash hind me'morlari uchun oson kechmadi. Qayta tiklash faqatgina an'anaviy qorishma, ya'ni marmardan foydalanilgan. Ularni asl manbaalardan olishga xarakat qilingan, bu borada soxtakorlik ketmaydi.

Oppoq marmar Shohjahonning niyatini ochuvchi asosiy kalit vazifasini o'taydi. Biroq uning sir-sinoati aynan toshlarning o'zida yashiringan. Maqbaraga eng yaqin Makrana marmar koni undan 320 km uzoqda joylashgan. Bu konlar 500 yillik tarixga ega. Zarur rangli marmarni qazib olish murakkab jarayon sanaladi. Konchilar dastlab 3 tonnalik tosh bo'lagini burg'ulab teshadi. Keyin kranlar ularni ehtiyotkorlik bilan tepaga tortib chiqaradi. Xatto eng zamonaviy ko'tarma qurilmalar yordamida xam bu ishni bajarish xatarli va o'ta murakkab kechadi. Tabiiyki u paytlarda bu jarayon yanada qiyinroq bo'lgan. Birinchidan ishchilar sof marmar qazib olishlari uchun 60 metr chuqurlikka tushgan va bolg'alar, hamda uskunalar bilan 6 tonnalik tosh bo'laklarini kesib chiqqanlar. So'ngra qo'lbola ko'tarma vositalari va fillar yordamida marmarni kondan tepaga tortib chiqqanlar. Xar bir tosh bo'lagi



ot aravalar orqali 320 km masofaga tashilgan. Keyin quruvchilar qurilish maydoniga yetib kelgan toshlarni zarur bo'laklarga bo'lib kesishgan. Tayyor koshinlar yana fillar va qo'lbola vositalar yordamida tepaga ko'tarilgan.

Sof marmar koshinlarni yasash jarayoni xam oson kechmagan. Toshlarning rangi ko'pincha bir-biridan keskin farq qilgan. Bitta kondan turlicha sifatli marmarlar chiqadi, toshlar xar xil ranglarda, ya'ni qo'ngir, qo'ng'iroq va oppoq bo'ladi. Bu yerdan faqatgina oq marmarni ajratib olishadi xolos. Ishchilar toshlarning oq qismini ajratib olish uchun qulay qilib kesishga mo'ljallaydi. Bu jarayonda yirik tosh kesuvchi qurilmalar juda qo'l keladi. Bu yirik tosh bo'lagidan kesib olingan sof oppoq marmar juda qimmatbaho qurilish ashyosi xisoblanadi. Ushbu tosh aslo qoraymaydi u nihoyatda oq. Oppoq marmarni ajratib olish sermashaqqat jarayondir. Nega Shohjahon aynan shu marmarni tanlagan? Bu savolning javobini Makrana marmarlari ko'p ishlatiladigan inshoatdan topish mumkin.

Odatda hinduviylik ibodatxonalarida oq devorlardan foydalaniladi. Ehtimol Shohjahon oq marmarlarni mahalliy aholi o'rtasida targ'ib qilishni ko'zlagandir. O'z kuch qudratini namoyon etishni istagandir. Shubhasiz bunday binolarning peshtoqlari sayyohlarni rom etadi, biroq ilgari bunday bezaklar Shohjahon qudratining timsoli sanalgan.

Ramziy kalitning yana bir unsuri mavjud u xam bo'lsa gravitasiya qonunlarini inkor etuvchi va odamlarda ilohiy sezgilarni uyg'otuvchi gumbazdir. Lekin u qanday qurilgani jumboq bo'lib kelmoqda. Zamonaviy muhandislar uning sirini ocha oladimi? Shuningdek maqbaraning mukammal uyg'unligini ta'minlagan jihatni aniqlashga qodirmi? Shohjahonning buyuk tafakkuri mahsuli Toj Mahal yodgorligi faqatgina maqbara emas, balki abadiy muhabbat ramzidir. Bino tuzilishining ortida ko'plab ma'lumotlar yashiringan. Ular albatta podshoh Shohjahonning nafasatga to'la zohiriy dunyosidan darak beradi.

Maqbaraning eng xashamatli qismi uning gumbazidir, kengligi 18 metrni tashkil qiluvchi ayni gumbaz yodgorlik balandligining qariyb yarmiga teng keladi, qolaversa gumbaz Shohjahonning ramziy kalitining asosiy unsuri xisoblanadi. Uning hayratomus shakli shamoyili hanuzgacha ko'plab savollarni paydo qiladi. O'sha zamonlarda qurilishga oid xujjatlar yuritilmagani tufayli gumbaz qanday tiklanganini xech kim bilmaydi.



### *Toj Mahal gumbazi*

Endi 400 yillik tarixga ega afsonaviy Toj Mahal gumbazini tahlil qilsak. Gumbazli binoni qurishda uning tayanch markazi ichkariga tortiladi va tomi qulab tushishi mumkin. Afsonaga ko'ra gumbazning qulab tushishidan qo'rqqan muhandislar dastlab uning ichkarisida ulkan g'ishtin minorani barpo etishgan. Gumbaz qurib bitkazilgach, Shohjahon maqbaraning darvozasini ochgan va ehtiyojmand mahalliy aholi vakillari g'ishtlarni bir kechada uylariga tashib ketishgan, ajoyib hikoya shunday emasmi?

Lekin hozirgi kun muhandislari ushbu hikoyaga ishonmaydi. Gumbazni tutib turuvchi minorani qurish uchun juda katta miqdorda g'isht talab qilinadi, qolaversa uni bunyod etish va buzishning o'zi alohida sermashaqqat yumush sanaladi. Muhandislar juda ko'p baxs munozalar olib borilishlari natijasida Toj Mahalning 160 barobar miqyosda kichraytirib maketini yasab ko'rishdi. Gumbaz oddiy g'isht terish orqali barpo etiladi. An'anaviy muhandislar gumbaz qurishda g'ishtlar ravoqning bosimiga perpendikulyar tarzda terilishi kerak deb xisoblaydilar. Toshni qiyalatib terish g'isht gumbazni qurishda foydalaniladigan oddiy uslub sanaladi, chunki bu usulda qurilish tugagach kuchli ichki negiz vujudga keladi. Ammo gumbazni bunday usulda qurishda g'ishtlarga kuchli tayanch zarur bo'ladi, faqat shundagina g'ishtin minora nazariyasi amalga oshadi.

Lekin yana bir nazariyada aytilishicha, Toj Mahalni qurishda g'ishtlarni pog'onali bo'rttirishdan foydalanilgan. Bu usulda g'ishtlar aniq o'lchov bo'yicha terilsa zarur balandlikka bemalol erishishi mumkin, keyin g'ishtlarning orqasi mayda bo'laklar bilan mustaxkamlanadi. Pog'onali gumbazni qurish uchun g'ishtlarni mustaxkam tutib turuvchi qalin devorlar zarur, bunday gumbazning afzalligi shundaki, uni ichkarisidan tayanch qurmasdan turib bunyod etsa bo'ladi. Mana model xam yaratildi, nazariya amaliyotda tasdiqlandi. Gumbaz tiklashda bundan ishonchliroq va amaliyroq usul bo'lmasa kerak. Bu haqiqatga ancha yaqin.

Ehtimol Shohjahonning muhandislari mana shunday qulay usul yordamida Toj Mahalning ulkan gumbazini xech qanday g'ishtin tayanchlarsiz barpo etgan. Gumbazning hayratomuz shakli va shamoyili hukmdor ramziy kalitining bir qismi bo'lsa ne ajab. Toj Mahalning asosi yerni ifodalovchi to'rtburchak supada joylashgan, qariyb to'liq yumaloq shakldagi gumbaz binoni ko'rgan xar bir odamga behishtning abadiyligi va mukammalligini eslatadi.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu inshoot ulkan olamning ixcham modelidir. Uning gumbazi ichida maqbaradan jannatga chiquvchi yo'l tasvirlangan, ya'ni Shohjahon Toj Mahalni qurdirishda ramziy timsollarga juda katta e'tibor qaratgan. Shoh Jahon 1666 yilda vafot etdi, u ancha keksayib qolgan, kasalmand edi. Sultonning yana bir orzusi bor edi, u Toj Mahal ro'parasida huddi shunday shaklda faqat qora rangdagi maqbarani barpo qilishni rejalashtirgan edi. Bu maqbara uning o'ziga atalgan bo'lishi kerak edi, biroq bu orzusini amalga oshirish unga yozilmagan ekan. Otasining o'rniga taxtga o'tirgan Avrangzeb bu loyihaning amalga oshishiga to'sqinlik qildi va yangi maqbaraning qurilish ishlarini to'xtatdi. Shunday bo'lsada, Shoh Jahon xotining vasiyatini amalga oshirib, Toj Mahaldek maqbarani barpo qila oldi.

Toj Mahalning shuhrat qozonishiga sabab uning noyob chiroyga ega bo'lishini hamda maqbarani qurilishida foydalanilgan optik illyuziyalardir. Gap shundaki, majmua hududiga kirish uchun darvoza oldidagi arkadan o'tish kerak. Arkaga yaqinlashgan sari maqbara uzoqlashganday tuyuladi, tashrif buyuruvchilar arkadan o'tishlari bilanoq ko'z o'ngilarida Toj Mahal namoyon bo'ladi. Maqbaradan uzoqlashgan sari esa u yaqinlashayotgandek tasavvur hosil qiladi, shuning uchun ham bu yerga kelgan mehmonlar Toj Mahalni o'zlari bilan olib ketayotgandek holga tushadilar. Butun dunyodan har yili 5 million odam ushbu arxitektura namunasini tomosha qilish uchun tashrif buyuradilar.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. <https://odam.uz/news/shoh-jahon-va-mumtoz-mahalning-muhabbat-tarixi-hamda-toj-mahal-siri>
2. <https://geografiya.uz/bilasizmi/1137-toj-mahal-haqida-hayratlanarli-10-fakt.html>
3. <https://www.uztv.tv/channels/foreign-languages>